

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабинова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
<b>1. Сейтов Азамат</b> ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
<b>2. Xolbekov Abdug‘ani</b> ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
<b>3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo</b> DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
<b>4. Abduraxmonova Manzura</b> KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
<b>5. G‘afforova Mavlyuda</b> SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
<b>6. Seitova Zuhra</b> AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
<b>7. Alikariyeva A‘loxon</b> TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
<b>8. Kamalova Khatira</b> QARAQALPAQ XALQI HAYAL-QIZLARINI JAMIETLIK-SIYASII BELSENDILIGI.....	60
<b>9. Якубов Ильдар</b> ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
<b>10. Burxanov Xusniddin</b> RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
<b>11. Hojiyev Zavqiddin</b> IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
<b>12. Axmedova Feruza</b> TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
<b>13. Akramov Xusan</b> ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
<b>14. Axmedov Qaxramon</b> IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIIY JIHA TLARI.....	112
<b>15. Raximova Shaxnoza</b> AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
<b>16. Xaydarova Javohira</b> RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIIY USULLARINI JORIIY ETISH.....	131

<b>17. Kamilov Farxod</b> INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
<b>18. Razzakova Nargis</b> MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
<b>19. Axmedova Ra'no</b> O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
<b>20. Мирзаева Шахноза</b> ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
<b>21. Вахидова София</b> ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
<b>22. Bozorova O'limaxon</b> IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
<b>23. Ruyiddinova Aisha</b> INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
<b>24. Tursunboyev Jahongir</b> SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
<b>25. Raximbayeva Oftobxon</b> ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
<b>26. Sharopov Sadriddin</b> INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
<b>27. Burxanov Xusniddin</b> RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
<b>28. Mamaziyaeva Nargiza</b> O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
<b>29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza</b> O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Murodova Fotimabonu,**

O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti


e-mail: fotimabonumurodova@gmail.com

**Axmedova Feruza,**

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti (PhD)

e-mail: farihon72@mail.ru

### O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18355031>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola raqamli inqilob sharoitida sotsiologiya fanining yangilangan ilmiy vazifalarini yoritadi va raqamli sotsiologiyani O‘zbekiston kontekstida nazariy-metodologik jihatdan asoslaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar (big data) jamiyatni o‘rganishda yangi bosqichni boshlab, ijtimoiy munosabatlar, kommunikatsiya modellari hamda ijtimoiy ongda o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilishni talab etmoqda. Raqamli sotsiologiya an‘anaviy usullarni (so‘rov, intervyu, kuzatish) raqamli platformalar, onlayn tarmoqlar, veb-analitika, kontent tahlili, raqamli etnografiya va tarmoq tahlili kabi zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtiradi; ijtimoiy haqiqatni “raqamli izlar” orqali tadqiq etish imkonini yaratadi. Tadqiqotda raqamli sotsiologiyaning predmeti sifatida onlayn identifikatsiya, axborot oqimlarining ijtimoiy ongga ta‘siri, tarmoq madaniyati, algoritmik boshqaruv va raqamli tengsizlik yo‘nalishlari ajratiladi. Nazariy asos sifatida strukturaviy-funksional yondashuv (T.Parsons, R.Merton) qo‘llanib, raqamli tizimlarning jamiyat barqarorligini ta‘minlashdagi funksiyalari hamda kutilmagan (latent) oqibatlarini tahlil qilinadi. Xalqaro tajribadan (AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Hindiston) kelib chiqib, ochiq ma‘lumotlar infratuzilmasini kengaytirish, maxsus laboratoriyalar tashkil etish, “Digital Sociology” va “Data Science for Social Research” kurslarini joriy etish, ma‘lumot etikasi bo‘yicha protokollarni kuchaytirish hamda xalqaro grantlarni rag‘batlantirish kabi tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli sotsiologiya; raqamli transformatsiya; sun‘iy intellekt; katta ma‘lumotlar (big data); tarmoq madaniyati; algoritmik boshqaruv; raqamli tengsizlik; onlayn identifikatsiya; axborot oqimlari; veb-analitika; raqamli etnografiya; kontent tahlili; tarmoq tahlili; ochiq ma‘lumotlar; ma‘lumot etikasi; e-hukumat; aqlli shahar; siyosiy qarorlar (qabul qilish); post-haqiqat.

**Муродова Фотимабону,**

магистрантка Национального университета Узбекистана

e-mail: fotimabonumurodova@gmail.com

**Ахмедова Феруза,**

доцент (PhD) Национального университета Узбекистана,

e-mail: farihon72@mail.ru

## ЦИФРОВАЯ СОЦИОЛОГИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

### АННОТАЦИЯ

Статья освещает обновлённые научные задачи социологии в условиях цифровой революции и теоретико-методологически обосновывает цифровую социологию в контексте Узбекистана. Информационно-коммуникационные технологии, искусственный интеллект и большие данные (big data) запустили новый этап изучения общества, требующий углублённого анализа социальных отношений, моделей коммуникации и изменений общественного сознания. Цифровая социология совмещает классические методы (опрос, интервью, наблюдение) с современными подходами – цифровыми платформами, онлайн-сетями, веб-аналитикой, контент-анализом, цифровой этнографией и сетевым анализом; это открывает возможность исследовать социальную реальность по «цифровым следам». В исследовании предмет цифровой социологии раскрывается через направления онлайн-идентификации, влияния информационных потоков на общественное сознание, сетевой культуры, алгоритмического управления и цифрового неравенства. В качестве теоретической основы применяется структурно-функциональный подход (Т.Парсонс, Р.Мертон), что позволяет проанализировать функции цифровых систем в обеспечении социальной стабильности и их непредвиденные (латентные) последствия. На основе международного опыта (США, Великобритания, Южная Корея, Сингапур, Индия) предлагаются рекомендации: расширение инфраструктуры открытых данных, создание специализированных лабораторий, внедрение курсов «Digital Sociology» и «Data Science for Social Research», усиление протоколов по этике данных и стимулирование международных грантов.

**Ключевые слова:** цифровая социология; цифровая трансформация; искусственный интеллект; большие данные (big data); сетевая культура; алгоритмическое управление; цифровое неравенство; онлайн-идентификация; информационные потоки; веб-аналитика; цифровая этнография; контент-анализ; сетевой анализ; открытые данные; этика данных; электронное правительство; умный город; государственная политика (принятие решений); постправда.

**Murodova Fotimabonu,**

Master's student at the National University of Uzbekistan

e-mail: fotimabonumurodova@gmail.com

**Akhedova Feruza,**

Associate Professor (PhD), National University of Uzbekistan

e-mail: farihon72@mail.ru

## DIGITAL SOCIOLOGY IN UZBEKISTAN: NATIONAL STATUS AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

### ABSTRACT

The article outlines the renewed scientific agenda of sociology amid the digital revolution and provides a theoretical-methodological grounding for digital sociology in the context of Uzbekistan. Information and communication technologies, artificial intelligence, and big data have ushered in a new phase of studying society, demanding in-depth analysis of social relations, communication models, and shifts in social consciousness. Digital sociology integrates classical methods (surveys, interviews, observation) with contemporary approaches-digital platforms, online networks, web analytics, content analysis, digital ethnography, and network analysis-thus enabling the investigation of social reality through “digital traces”. The study defines the field’s object through key strands: online identification, the impact of information flows on public consciousness, network culture, algorithmic governance, and digital inequality. As its theoretical foundation, it employs the structural-functional approach (T.Parsons, R.Merton) to examine how digital systems contribute to social

stability and their unforeseen (latent) effects. Drawing on international experience (the United States, the United Kingdom, South Korea, Singapore, India), the paper recommends expanding open-data infrastructure, establishing specialized laboratories, introducing courses in “Digital Sociology” and “Data Science for Social Research”, strengthening data-ethics protocols, and encouraging international grants.

**Key words:** digital sociology; digital transformation; artificial intelligence; big data; network culture; algorithmic governance; digital inequality; online identity; information flows; web analytics; digital ethnography; content analysis; network analysis; open data; data ethics; e-government; smart city; public policy (decision-making); post-truth.

## KIRISH

So‘nggi yillarda insoniyat taraqqiyotining barcha sohalarini qamrab olgan raqamli inqilob ijtimoiy hayotning tub mohiyatini o‘zgartirib yubordi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun‘iy intellektning amaliyotga keng kirib borishi, katta ma‘lumotlar (big data) tahlilining kundalik boshqaruv va siyosiy qarorlar qabul qilish tizimida qo‘llanilishi – bularning barchasi jamiyatni o‘rganishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ana shu sharoitda sotsiologiya fani o‘z oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi: jamiyatda raqamli texnologiyalar ta‘sirida shakllanayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar, kommunikativ model va ijtimoiy ongda o‘zgarishlarni ilmiy tahlil etish. Ushbu ehtiyoj raqamli sotsiologiya deb ataluvchi yangi ilmiy yo‘nalishning shakllanishiga asos bo‘ldi.

Raqamli sotsiologiya an‘anaviy sotsiologik yondashuvlarning mantiqiy davomidir. U ijtimoiy hodisalarni faqat so‘rovnoma, kuzatuv yoki intervyu kabi klassik metodlar orqali emas, balki raqamli platformalar, onlayn tarmoqlar, sun‘iy intellekt va ma‘lumotlar tahlili yordamida o‘rganishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv ijtimoiy haqiqatni “raqamli izlar” orqali tahlil qilish, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi raqamli o‘zaro aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu jihatdan, raqamli sotsiologiya nafaqat metodologik yangilik, balki zamonaviy sotsiologiyaning falsafiy va epistemologik chegaralarini kengaytiruvchi konseptual yo‘nalishdir.

O‘zbekistonda raqamli sotsiologiya hali shakllanish bosqichida bo‘lsa-da, uning ilmiy va amaliy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1], elektron boshqaruv tizimlari, raqamli iqtisodiyot va axborot makonining kengayishi sotsiologik tadqiqotlar uchun yangi empirik maydon yaratmoqda. Shu sababli raqamli sotsiologiyaning rivojlanishi nafaqat sotsiologik nazariya va amaliyotni yangilaydi, balki ijtimoiy boshqaruv, davlat siyosati va jamiyatning raqamli transformatsiyasini ilmiy asos bilan ta‘minlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda raqamli sotsiologiyani shakllantirish, uning nazariy-metodologik poydevorini yaratish, xalqaro tajribalardan o‘rganish hamda milliy ilmiy maktabga mos innovatsion tadqiqot usullarini joriy etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli davrda ijtimoiy o‘zgarishlarning chuqurlashuvi, shaxsning onlayn identiteti, raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi kabi masalalar sotsiologiyaning yangi tahliliy ko‘nikmalarini talab etadi. Shu ma‘noda, O‘zbekiston sharoitida raqamli sotsiologiyaning rivojlanishini o‘rganish milliy ilm-fan taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

## METODOLOGIYA

Raqamli sotsiologiya – bu zamonaviy ijtimoiy fanlarning eng ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va global tarmoq tizimlari orqali shakllanayotgan ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan fanlararo tadqiqot sohasi hisoblanadi. U an‘anaviy sotsiologiyaning metodologik poydevoriga tayanib, jamiyatning raqamli o‘zgarishlari, axborot oqimlari va onlayn muloqot madaniyati orqali yangi ijtimoiy haqiqatni tushuntirishni maqsad qiladi [2].

Raqamli sotsiologiyaning predmeti – bu insonlarning raqamli makondagi ijtimoiy o‘zaro aloqalari, kommunikativ amaliyotlari va ijtimoiy rolining virtual shakllanish jarayonidir [3]. U quyidagi asosiy jihatlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi:

- **Onlayn identifikatsiya** – shaxsning raqamli muhitda o‘zini namoyon etishi, virtual obrazini shakllantirishi va ijtimoiy maqomini belgilashi;

- **Axborot oqimlari** – raqamli tarmoqlarda ma'lumotlarning uzatilishi, qayta ishlanishi va jamiyat ongiga ta'sir mexanizmlarini tahlil etish;
- **Tarmoq madaniyati** – internet makonida shakllanayotgan yangi madaniy me'yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy xulq modellari;
- **Algoritmik boshqaruv** – sun'iy intellekt, ma'lumotlar algoritmlari va raqamli platformalar orqali inson xatti-harakatlariga ta'sir etish jarayonlarini o'rganish;
- **Raqamli tengsizlik (digital divide)** – texnologiyalarga, internet resurslariga va axborot imkoniyatlariga kirishdagi ijtimoiy tafovutlarni tahlil qilish.

Raqamli sotsiologiya shu jihatdan nafaqat yangi tadqiqot yo'nalishi, balki jamiyat taraqqiyotining raqamli bosqichini ilmiy anglash vositasidir [4]. U raqamli muhitda shakllanayotgan ijtimoiy tizimlarni, guruhlar o'rtasidagi virtual o'zaro ta'sirni, onlayn ishonch, hamkorlik, konflikt va ijtimoiy identitet masalalarini zamonaviy tahlil instrumentlari yordamida tadqiq etadi [5].

Boshqacha aytganda, raqamli sotsiologiya jamiyat hayotining "virtual o'lchami"ni ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qamrab oladi. U ijtimoiy munosabatlarning raqamli texnologiyalar ta'sirida qanday shakllanishini, insonlarning onlayn maydonda o'zini tutish strategiyalarini va raqamli muhitning ijtimoiy ongga ta'sir mexanizmlarini chuqur tahlil etadi [6].

### ASOSIY QISM

Nazariy jihatdan raqamli sotsiologiya uchta asosiy paradigmani o'z ichiga oladi:

**Strukturaviy-funksional yondashuv** (T.Parsons, R.Merton) raqamli sotsiologiyaning nazariy asoslaridan biri sifatida jamiyatni murakkab, o'zaro bog'liq tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, har bir ijtimoiy tizim – siyosiy, iqtisodiy, madaniy yoki kommunikativ bo'lishidan qat'i nazar – jamiyat barqarorligini ta'minlashda o'ziga xos funksiyani bajaradi. Shu boisdan, raqamli tizimlar ham ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi sifatida qaraladi va ular jamiyatning moslashuvchanligi, integratsiyasi hamda ijtimoiy muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

T.Parsonsnings **ijtimoiy tizimlar nazariyasida** jamiyat to'rtta asosiy funksional kichik tizimdan iborat deb hisoblanadi: **moslashuv (adaptation)**, **maqsadga erishuv (goal attainment)**, **integratsiya (integration)** va **qadriyatlarni saqlash (latency)**. Ushbu AGIL modeli raqamli jamiyat tahlilida ham dolzarb ahamiyatga ega [7].

strukturaviy-funksional yondashuv nuqtai nazaridan raqamli tizimlar jamiyat barqarorligini qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ushbu tizimlarning ortida yashirin ijtimoiy oqibatlar ham mavjud bo'lib, ular sotsiologik tahlil uchun alohida e'tiborni talab etadi.

Shunday qilib, T.Parsons va R.Merton nazariyalariga asoslangan strukturaviy-funksional yondashuv raqamli sotsiologiyada texnologik o'zgarishlarning ijtimoiy tizimdagi o'rnini, ularning jamiyat barqarorligiga qo'shayotgan hissasini hamda kutilmagan ijtimoiy oqibatlarini chuqur tahlil etish imkonini beradi.

Ushbu yondashuv raqamli sotsiologiyada alohida o'rin tutadi, chunki raqamli makon – bu yangi turdagi "ijtimoiy laboratoriya" bo'lib, unda insonlar o'z ijtimoiy identitetini, qadriyatlarini, munosabatlarini va hatto voqelik haqidagi tasavvurlarini onlayn kommunikatsiya vositalari orqali **quradilar va takror ishlab chiqadilar**.

Raqamli muhitda ijtimoiy haqiqat **onlayn muloqot, axborot oqimlari, vizual obrazlar va virtual hamjamiyatlar** orqali shakllanadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, "like"lar, "trend"lar va "hashtag"lar muayyan voqealarga ijtimoiy ma'no beradi. Algoritm orqali tanlangan kontent foydalanuvchilarning dunyoqarashini yo'naltiradi va ma'lum ijtimoiy konstruksiyani mustahkamlaydi. Virtual jamoalar (forumlar, Telegram-guruhlar, Reddit, X kabi platformalar) o'ziga xos diskursiv muhit yaratib, "haqiqat"ni kollektiv tarzda shakllantiradi.

Shunday qilib, raqamli makonda ijtimoiy haqiqat – bu **tarmoq orqali uzatiladigan ma'no tizimlarining** yig'indisidir. Bu jarayonda "haqiqat" ko'p hollarda ob'ektiv faktlarga emas, balki **ijtimoiy kelishuvlar, algoritmik tanlovlar va diskursiv kuchlarga** tayanadi. Natijada raqamli makonda insonlar tomonidan yaratilgan va doimiy ravishda almashiladigan axborot oqimi ijtimoiy haqiqatning yangi qatlamini hosil qiladi. Bu qatlam ko'pincha "post-haqiqat" davrining asosiy belgilaridan biri sifatida ta'riflanadi.

Metodologik jihatdan esa raqamli sotsiologiya an'anaviy (intervyu, so'rovnomalar, kuzatish) va zamonaviy (vab-analitika, kontent tahlil, raqamli etnografiya, big data tahlili) usullarni uyg'unlashtiradi. Masalan, tadqiqotchi Facebook, Telegram yoki Instagram kabi tarmoqlardagi foydalanuvchi xatti-harakatlarini o'rganib, ijtimoiy tendensiyalarni aniqlashi mumkin.

Raqamli sotsiologiya shuningdek quyidagi muammolar bilan ham shug'ullanadi:

- ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiylik va anonimlik masalalari;
- axborot xavfsizligi va etik me'yorlar;
- "filter pufaklari" (echo chambers) va manipulyatsion algoritmlar muammosi;
- raqamli tafovut (digital divide) – texnologiyalarga kirishdagi tengsizlik.

O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida faol rivojlanmoqda. So'nggi yillarda e-hukumat, elektron ta'lim, raqamli sog'liqni saqlash va "aqlli shahar" (smart city) loyihalari bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Shu bilan birga, jamiyatning raqamli madaniyati ham o'sib bormoqda – bu sotsiologik tadqiqotlar uchun katta empirik baza yaratadi.

Raqamli infratuzilmaning kengayishi – aholining 80% dan ortig'i internetdan foydalanadi. Yoshlar orasida onlayn muloqot, elektron ta'lim va elektron xizmatlardan foydalanish yuqori. Davlat organlarining ochiq ma'lumotlar (open data) siyosatini yo'lga qo'yishi sotsiologik tahlillar uchun yangi imkoniyat yaratmoqda [8]. Universitetlarda raqamli sotsiologiya elementlari sotsiologiya fanlariga kiritilmoqda. Biroq, akademik tadqiqotlar asosan nazariy yo'nalishda bo'lib, empirik ma'lumotlardan keng foydalanilmayapti. "Big data" tahlili, statistik kodlash, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish ko'nikmalari yetishmaydi. Qishloq hududlarida raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati past. Ma'lumotlar maxfiylik va etik qoidalar bo'yicha qonunchilik to'liq shakllanmagan. Ilmiy grantlar va xalqaro hamkorlik loyihalari yetarli emas. Shunga qaramay, O'zbekistonda raqamli sotsiologiyani rivojlantirish uchun mustahkam ijtimoiy, texnologik va siyosiy asoslar mavjud [9].

Raqamli sotsiologiya dunyoning ko'plab mamlakatlarida ijtimoiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishiga aylangan. AQShda "Stanford Digital Society Lab", "MIT Media Lab" markazlari raqamli xulq, sun'iy intellekt va algoritmik adolat muammolarini o'rganadi. Buyuk Britaniyada "Oxford Internet Institute" raqamli jamiyat, onlayn ishonch va dezinformatsiya masalalarini sotsiologik tahlil qiladi. Janubiy Koreya va Singapurda "Smart city" loyihalari doirasida fuqarolarning raqamli faoliyatiga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi, bu esa shahar boshqaruvini sotsiologik ma'lumotlar asosida optimallashtirishga xizmat qiladi. Hindistonda "Digital India" dasturi raqamli ijtimoiy tengsizlik va internet savodxonligini o'rganish bilan bir qatorda, elektron xizmatlardan foydalanish darajasini monitoring qiladi. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, raqamli sotsiologiyani rivojlantirish uchun ochiq ma'lumot siyosati, metodologik tayyorgarlik va akademik hamkorlik muhim omil hisoblanadi (1-jadval).

### Taqqosiy tahlil, saboqlar va tavsiyalar

1-jadval

Aspekt	O'zbekiston	Xalqaro tajriba	Tavsiya
Ma'lumotlar bazasi	Davlat statistikasi va so'rovlar bilan cheklangan	Keng ochiq ma'lumot (open data) tarmoqlari mavjud	Ma'lumotlarni ochiq formatda taqdim etish zarur
Metodologiya	Asosan so'rovnomalar va intervyyular	Big data, onlayn kuzatish, tarmoq tahlili	Raqamli tahlil ko'nikmalarini o'qitish
Etika va maxfiylik	Yangi bosqichda	Qattiq etik protokollar ishlab chiqilgan	Ma'lumot maxfiylik qonunlarini takomillashtirish
Akademik salohiyat	Cheklangan, lekin o'sib bormoqda	Maxsus ilmiy markazlar mavjud	Maxsus raqamli sotsiologiya laboratoriyalarini yaratish
Xalqaro hamkorlik	Endi shakllanmoqda	Keng miqyosda yo'lga qo'yilgan	Grantlar va qo'shma loyihalarni rag'batlantirish

Raqamli sotsiologiya uchun davlat statistikasi va ochiq ma'lumotlar bazasini birlashtirish zarur. Universitetlarda "Digital Sociology", "Data Science for Social Research" kabi kurslarni joriy etish lozim. Axborot xavfsizligi va ma'lumot etikasi bo'yicha maxsus o'quv modullar ishlab chiqish kerak. Xalqaro hamkorlik – BMT, UNESCO, ILO kabi tashkilotlar bilan qo'shma tadqiqotlar o'tkazish. Empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanish.

### XULOSA

Raqamli sotsiologiya O'zbekiston uchun yangi, lekin istiqbolli ilmiy yo'nalishdir. U jamiyatning raqamli o'zgarishlarini ilmiy asosda tushuntirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda tahliliy yondashuvni kuchaytirish, va eng muhimi, raqamli transformatsiyaning ijtimoiy oqibatlarini prognoz qilish imkonini beradi.

Kelajakda O'zbekistonda raqamli sotsiologiya quyidagi yo'nalishlarda rivojlanadi:

- ijtimoiy tarmoqlar va raqamli madaniyat tadqiqotlari;
- sun'iy intellekt va etik masalalar tahlili;
- raqamli tengsizlik va ijtimoiy adolat masalalari;
- davlat boshqaruvi va jamiyat monitoringida raqamli tahlil usullarining qo'llanilishi.

Shunday qilib, raqamli sotsiologiya – O'zbekistonning "Raqamli transformatsiya" siyosatini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydigan, xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashgan va milliy ilm-fan uchun yangi istiqbol eshigini ochuvchi yo'nalishdir. U nafaqat ijtimoiy munosabatlarning raqamli muhitda qayta tashkil topishini tushuntiradi, balki siyosiy qarorlar, davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati amaliyotlarini dalillarga tayangan holda yangilash imkonini beradi. Raqamli platformalar, algoritmik boshqaruv va "raqamli izlar"ni kompleks o'rganish orqali ijtimoiy tartib, adolat va ishonchning zamonaviy mexanizmlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Maqola doirasida ilgari surilgan nazariy-metodologik yondashuvlar (strukturaviy-funksional tahlil, tarmoq va kontent tahlili, raqamli etnografiya) milliy sharoitga mos tadqiqot standartlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, ochiq ma'lumotlar siyosatini kengaytirish, davlat statistikasi va onlayn manbalarni integratsiyalash, hamda ilmiy hamkorlikni kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi. Xususan, "Digital Sociology" va "Data Science for Social Research" kabi kurslarni joriy etish, ma'lumot etikasi va maxfiylik bo'yicha protokollarni takomillashtirish, shuningdek, ijtimoiy tengsizlikning raqamli o'lchamlarini tizimli monitoring qilish dolzarb vazifalardir [10].

Amaliy nuqtai nazardan, raqamli sotsiologiya quyidagi natijalarga yetaklaydi:

- (1) e-hukumat va "aqlli shahar" loyihalarini fuqarolarning haqiqiy ehtiyojlariga moslashtirish;
- (2) ochiq ma'lumotlar asosida ijtimoiy xizmatlar samaradorligini baholash;
- (3) dezinformatsiya, "filter pufaklari" va algoritmik noxolislik risklarini erta aniqlash;
- (4) raqamli tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan aniq maqsadli siyosat choralari ishlab chiqish.

Bu yo'lda akademik institutlar, davlat organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasida ma'lumot almashinuvi, qo'shma laboratoriyalar va grant dasturlari muhim drayver bo'lib xizmat qiladi. Albatta, yo'nalishning rivojida ayrim cheklovlar mavjud: katta ma'lumotlar sifati va ularga kirish cheklanganligi, metodik va texnik ko'nikmalar yetishmasligi, hamda etik-huquqiy me'yorlarning to'liq shakllanmagani.

Shu bois, keyingi bosqichda (a) ma'lumotlar boshqaruvi bo'yicha milliy standartlar; (b) tadqiqotchilar uchun kodlash, vizualizatsiya va algoritmik audit ko'nikmalariga yo'naltirilgan malaka dasturlari; (c) ochiq va takrorlanuvchi tadqiqot amaliyotlarini rag'batlantiruvchi grant mexanizmlari zarur. Yakun qilib aytganda, raqamli sotsiologiya O'zbekistonda ijtimoiy o'zgarishlarni chuqur anglash, adolatli va inklyuziv siyosatni loyihalash hamda raqamli transformatsiyaning uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlarini prognoz qilish uchun tayanch ilmiy platformadir. Uning barqaror rivoji – ilmiy hamjamiyatning metodik salohiyati, ochiq ma'lumotlar ekotizimi va xalqaro hamkorlikning tizimli yo'lga qo'yilishiga bevosita bog'liq.

---

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

---

1. <https://www.sostav.ru/publication/we-are-social-i-hootsuite-52472.html>
2. Lazer D., Pentland A., Adamic L., et al. (2009). Computational Social Science. *Science*, 323(5915). – P. 721-723.
3. Crawford K. (2012). Critical Questions for Big Data. *Information, Communication & Society*, 15(5). – P.662-679.
4. Park J., & Lee H. (2014). The role of social network sites in the relationship between materialism and social media addiction: A conceptual framework and research directions. *Korean Journal of Journalism & Communication Studies*, 58(6). – P.5-28.
5. Elhai J.D., Dvorak R.D., Levine J.C., & Hall B.J. (2017). Problematic smartphone use: A conceptual overview and systematic review of relations with anxiety and depression psychopathology. *Journal of Affective Disorders*, 207. – P. 251-259.
6. Wang Y., Sun, S., & Zhang J. (2018). Demonstrative consumer behavior and social media use: A cross-national study of young adults. *Journal of Marketing Communications*, 24(6). – P.584-598.
7. Парсонс Т. Система современных обществ. – М.: Аспект Пресс, 1997. – С. 120-215. Парсонс Т. Социальная система. – М.: Наука, 2002, Ритцер Дж. Современные социологические теории. – М.: Аспект Пресс, 1996.
8. <https://mitc.uz/ru/stat/11>
9. Axmedova F. Harmonization of professional and personal competencies in future pharmaceutical personnel//*Thematics Journal of Sociology*, 2021.
10. Вяткина Ю., Бураканова Г., Ахмедова Ф. Сравнительный анализ демонстративного потребления молодежи стран//*Журнал социологических исследований*. – Ташкент, 2023, Том 1. – С.26-36.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000